# O‘QUV DASTUR PASPORTI

***O‘quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil 16 iyun №MTUK 12-sonli dastur tasdiqlash ro‘yhatiga asosan tasdiqlangan.***

*Qayd raqami:MMO – 316* *Amal qilish muddati 2027 yil sentyabrgacha*

| | |
|---|---|
| **Ta'lim muassasasi nomi** | Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi |
| **Kafedra/ bo‘lim** | Oftalmologiya kafedrasi |
| **O‘quv dastur nomi** | Oftalmologiyada zamonaviy davolash usullari |
| **O‘qish turi** | Umumiy malaka oshirish |
| **O‘quv dastur mualliflari** | Prof. Komilov X.M., prof. Kasimova M.S., dosentlar Normatova N.M., Babaxanova D.M., Xakimova Z.K., Maksudova L.M., Xamraeva G.X., Abdullaev Sh.R. |
| **Siklning umumiy soati** | 144 kredit |

**Dars o‘tuvchi pedagoglar**

|  |  |  |  |  |  |  |  |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| X.M.Kamilov t.f.d., professor, kafedra mudiri | M.S. Kasimova t.f.d., professor | N.M.Normatova DSc, dosent. | D.M. Babaxanova t.f.n., dosent | Z.K. Xakimova DSc, dosent. | L.M. Maksudova DSc, dosent. | G.X. Xamraeva DSc, dosent. | Sh.R. Abdullaev DSc, dosent. |

| | |
|---|---|
| **Maqsad** | Oftalmologlarning professional kompetensiyalarini takomillashtirish asosida, ularda oftalmologik kasalliklarni klinik manzarasi, simptomlarini aniqlash, oftalmologik tekshirish usullaridan samarali foydalanish qobiliyatini kuchaytirish, xalqaro kasalliklar tasnifiga (XKT-10 yoki MKB-10) mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllari, ambulator va stasionar sharoitda kasalliklarni tashhislash, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini mukammallashtirish va yangilash. |
| **Siklga taklif qilingan mutaxasisslar -** | Poliklinika va stasionar oftalmologlari |
| **Dastur vazifalari** | • Nazariy amaliy materiallarni va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish asosida zamonaviy tashxislash usullari bilan tanishtirish, bemorlarni davolash va reabilitasiya qilish bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish orqali kasbiy kompetentlikni oshirish; |

| | |
|---|---|
| | • Ko‘rish o‘tkirligining pasayishi va ko‘z tubidagi o‘zgarish sabablari va patogenetik mexanizmlari haqidagi bilimlari doirasini kengaytirish;<br>• Ko‘rish o‘tkirligining pasayishi va ko‘z tubidagi o‘zgarishlar bilan kechuvchi xolatlarda qo‘llanib kelayotgan klinik protokollar, standartlarni tahlil qilish va ularni kasalliklarning turli klinik kechishlarida qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarni yangilash.<br>• Ko‘ruv a'zolari yallig‘lanish va distrofik tug‘ma va orttirilgan kasalliklarini epidemiologiyasi, patogenezi, tashhislash va davolashni zamonaviy bilimlar darajasida takomillashtirish;<br>• Ko‘ruv a'zolari kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullari ko‘nikmalarini takomillashtirish;<br>• Ko‘ruv a'zolari kasalliklarini zamonaviy davolash usullari ko‘nikmalarini takomillashtirish;<br>• Aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, bemorlarni dispanser kuzatuvini olib borishni takomillashtirish. |
| **Modullar** | **Modul 1.** O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasi.<br><br>**Modul 2.** Ko‘ruv a'zolarining klinik-topografik xususiyatlari. Oftalmologik bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari: KP, MRT, MRtraktografiya, KT, ERG, EEG, ZVP, OKT va boshqalarning diagnostik ahamiyati.<br><br>**Modul 3.** Ko‘ruv a'zolarining yordamchi apparatining yallig‘lanish va distrofik kasalliklarining etiopatogenezi, sinflanishi, klinikasi, diagnostikasi. Ko‘z yoshi a'zolarining kasalliklari.<br><br>**Modul 4.** Refraksiya anomaliyalarining etiopatogenezi, tasnifi, klinikasi. Konservativ va jarroxlik davolash usullari. Kontakt korreksiya asoslari, turlari. Refraksion jarroxlikga ko‘rsatmalar. G‘ilaylikni turlari, sabablari, zamonaviy jaroxlik davolash usullari.<br><br>**Modul 5.** To‘r parda arteriya va vena qon tomirlarida qon aylanishining o‘tkir buzilishi: etiologiyasi, klinikasi va davolash usullari. Qandli diabet va gipertoniya kasallikida ko‘ruv a'zolaridagi o‘zgarishlar. Glaukomaning etiopatogenezi, sinflanishi, klinikasi, diagnostikasi va erta aniqlash usullari. |

| | | |
|---|---|---|
| **O‘qish bazalari** | Respublika Ko‘z kasalliklari klinik kasalxonasi  | Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy amaliy tibbiet markazi   |
| | Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi markazi  | “Saif Optima” xususiy klinikasi  |
| **Simulyasion asbob/uskunalar** |    | |

| | |
|---|---|
| |  |